

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 82-311.2

REALISTIK VA PSIXOLOGIK TASVIR: "GIRDOB" ROMANI QAHRAMONLARI MISOLIDA**РЕАЛИСТИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИЛЛЮСТРАЦИЯ: НА ПРИМЕРЕ ПЕРСОНАЖЕЙ РОМАНА «ВОДОВОРОТ»****REALISTIC AND PSYCHOLOGICAL DEPICTION: EXAMPLE OF THE CHARACTERS OF THE NOVEL "WHIRLPOOL"****Farmonov Nurbek Pulatovich** 

Qarshi davlat universiteti, xalqaro nashrlar bo'yicha mutaxassis

Annotatsiya

O'ktam Usmonov o'zbek adabiyotida inson ruhiyati va jamiyatning murakkab ziddiyatlarini aks ettirish bilan ajralib turadigan yozuvchilardan biridir. U bir necha qissa va hikoyalar to'plami va "Girdob" romanining muallifi hisoblanadi. Uning "Girdob" romani jamiyatdagi murakkab muammolar, insoniy qarama-qarshiliklar, ichki kechinmalar va ijtimoiy o'zgarishlar haqida hikoya qiladi. Romanda muallif turli qahramonlarning ichki dunyosini chuqur tahlil qilib, ularning xarakterini realistik tasvirlash orqali badiiy mahoratini namoyish etgan. Ushbu maqolada "Girdob" romanidagi Aziz Qosimov, Saltanat, Yo'ldosh, Muhiddin Jabborovich va Rasul Olloyorovich obrazlari tahlil qilinadi hamda O'ktam Usmonovning obraz yaratish uslubi ochib beriladi.

Аннотация

Уктам Усманов — один из писателей узбекской литературы, выделяющийся отражением сложных противоречий человеческой психики и общества. Он является автором нескольких сборников рассказов, а также романа «Водоворот». Его роман повествует о сложных проблемах общества, человеческих противоречиях, внутренних переживаниях и социальных изменениях. В романе автор демонстрирует свое художественное мастерство, глубоко анализируя внутренний мир различных персонажей и реалистично изображая их характеры. В статье анализируются образы Азиза Касимова, Салтанат, Юлдаша, Мухиддина Джабборовича и Расула Оллоёровича в романе «Водоворот», раскрывается стиль создания персонажей Уктама Усманова..

Abstract

Uktam Usmanov is one of the writers in Uzbek literature known for his reflection of the complex contradictions of the human psyche and society. He is the author of several short story collections and the novel Whirlpool. This novel addresses complex social issues, human conflicts, inner experiences, and social changes. In the novel, the author demonstrates his artistic skills by deeply analyzing the inner world of various characters and realistically portraying them. This article analyzes the characters of Aziz Kasimov, Saltanat, Yuldosh, Muhiddin Jabborovich, and Rasul Olloyorovich in Whirlpool and reveals Uktam Usmanov's approach to character creation..

Kalit so'zlar: badiiy obraz, umumlashma va individual obrazlar, realistik obraz, mol-mulk, sadoqat.

Ключевые слова: художественный образ, обобщенные и индивидуальные образы, реалистический образ, собственность, верность.

Key words: artistic image, generalized and individual images, realistic image, property, loyalty.

KIRISH

O'ktam Usmonov XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega ijodkor bo'lib, 1938-yilda Toshkent viloyatining Qibray tumanidan tug'ilgan. U o'rta maktabni tamomlaganidan so'ng, oliy ma'lumotni Toshkent pedagogika institutida olgan. O'.Usmonov 1972-yildan mehnat faoliyatini boshladi va ko'plab sohalarda samarali mehnat qildi. U O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida kotib va "O'zbekiston ovozi" gazetasida bosh muharrir vazifalarida ishlash bilan birga ijod bilan ham shug'ullandi. Usmonov ijodining ilk namunalari 1964-yilda chop etilgan "Guldasta" deb nomlangan hikoyalar to'plamida o'rin olgan. Shuningdek, adibning 1976-yilda "Notinch kecha" va 1981-yilda esa "Sirli sohil" nomli hikoyalar to'plamlari ham nashr etilgan. Usmonov ijodida hikoya janri muhim o'rin tutadi. O'ktam Usmonov asarlarida keltirilgan qahramonlarni o'z farzandidek qabul qiladi, "Jala", "Kuzatish", "Charxchi", "Tunda uvlagan it", "Qaldirg'och", "Bolalik" hikoyalari obrazlari o'rniga o'zini qo'yib ko'radi, ularga nisbatan o'z g'amxo'rligini, achinish hissini, ruhiy kechinmalarini namoyon qila oladi [1]. Shuningdek, uning "Bahor chaqmoqlari", "Kishan" va "Qismat" kabi qissalari ham keng jamoatchilik, adabiyot ixlosmandlari tomonidan yaxshi kutib olingan. Ushbu qissalarga adabiy tanqidchilar yuqori baho berishgan [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'ktam Usmonovning "Girdob" romanida obraz yaratish mahorati tahlil qilinadi. Yozuvchi o'z qahramonini yaratishda hayotda mavjud biror sinf yoki kasbdagi bir qancha odamlarni kuzatadi, ularning o'zaro umumiy belgisi, xulq-atvori, xususiyat va xarakterlarini jamlab, umumlashtirib, asar qahramonini yaratishda ulardan foydalanadi [3: 139, 4: 85]. Badiiy obrazni tasvirlashda ta'sirchanlikka erishish yozuvchi mahoratini ko'rsatadi [5: 42, 6: 65]. O'. Usmonovning 1979-yilda nashr etilgan yagona romani "Girdob" yozuvchiga katta shuhrat olib keldi. Ushbu roman voqealari butun dunyo paxtachiligiga qattiq zarba bergan vilt kasalligiga qarshi kurashgan yosh o'zbek olimi Aziz Qosimov taqdiri haqida so'zlaydi. O'ktam Usmonov romanini "Girdob" deb nomlagani ham bejizga emas. Girdob daryo, ko'l kabi suv havzalari bilan bog'liq tabiiy hodisa. Girdobning paydo bo'lishiga turlicha sabablar keltirish mumkin. Masalan, suv havzasining osti o'pirilib, teshik paydo bo'ladi va yuzadagi suvni pastga shitob bilan tortadi. Asosiysi, girdob atrofida suv yuzasi nisbatan tinch bo'lsada, unga yaqinlashganda uning domidan qutilib qolish deyarli imkonsizdir. Girdobga tushgan jamiki jonzod suv ostida tiqilib qolib yoki uzoq vaqt suvosti oqimida havosiz qolib, ko'pincha halok bo'ladi. Bizningcha, yozuvchi asarida ilm-fanni, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishni barchaga foydasi tegadigan katta bir suv havzasiga o'xshatadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Aziz Qosimov ilm yo'lida azob chekkan romanning asosiy qahramoni bo'lib, u o'zining ichki iztiroblari bilan ajralib turadi. A. B. Yesin ta'biri bilan aytganda, badiiy psixologizm – bu asar personajining hayotot olami, fikrlari, mulohazalarining o'ziga xos badiiy vositalardan foydalangan xolda juda to'liq, batafsil va chuqur ifodalab berish [7]. Uning obrazi quyidagi jihatlar bilan namoyon bo'ladi:

Ichki ziddiyatlar – Azizning ruhiy kechinmalari va o'z hayotiga bo'lgan qarashlari uning iztiroblari orqali ochib berilgan. U jamiyatdagi adolatsizliklarni anglagan sari o'z yo'lini tanlashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Psixologik tahlil – muallif Aziz Qosimov obrazini yaratishda psixologik tahlil vositasidan mohirlik bilan foydalanadi. U hayotiy muammolar va ichki kechinmalar bilan kurashadi.

Dialog va monologlardan foydalanish – Azizning ichki monoglari va dialoglari orqali uning fikrlarini, qarashlarini va shaxsiy o'zgarishlarini kuzatish mumkin. Aziz aspiranturani tugatgan bo'lsada, o'zbek paxtachiligiga foyda keltiradigan biror bir salmoqli ilmiy tadqiqot natijasiga erishmagani uchun fan nomzodligini himoya qilmagan edi. O'zini bunga munosib ko'rmasdi, chunki 1960-70-yillarda vilt kasalligi g'o'za parvarishiga, ingichka tolali sifatli paxta hosili etishtirishga ancha jiddiy zarar yetkazardi. Butun respublika qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganidan viltga qarshi kurash paxtachilik oldida turgan asosiy muammo edi. Yozuvchi bosh qahramon Azizning ilmiy tadqiqot institutidagi izlanishlarini, obro'li ustoz olimlarning uning inqilobiy tadqiqotlariga ishonmasliklari, uni masxara qilishlari va izlanishiga qarshilik qilishlarini zo'r mahorat bilan tasvirlab bergan. Shu bilan birga, asarda Azizning vilt kasalligiga qarshi kurashib, yetti yil deganda sekin-asta ijobiy natijaga erishishi, ammo bu vaqt davomida uning shaxsiy turmushi izdan chiqib ketishi tasvirlangan. Uning eng yaqin kishisi, xotini Saltanatning turmush qiyinchiliklariga sabr-toqat qilolmasligi, eriga xiyonat qilishi Azizga qattiq ruhiy zarba beradi.

Saltanat obrazi orqali O'ktam Usmonov ayol taqdirini, uning jamiyatdagi o'rnini va kurashlarini aks ettiradi. Saltanat obrazining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

Nozik, ammo mustahkam xarakter – Saltanat o'z hayot yo'lida ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi, lekin bu qiyinchiliklar uni sindirmaydi. U o'ziga xos mustahkam xarakter egasi sifatida tasvirlangan.

Jamiyat ta'sirida shakllangan ayol – uning hayoti va shaxsiy qarashlari atrof-muhit va an'analarning ta'siri ostida rivojlanadi. Saltanat uzoqni ko'ra oladigan, har bir gapni mag'zini chaqa oladigan ziyrak ayol. U 19-22 yoshlar atrofida bo'lib, ota uyida beg'am-betashvish to'kin hayot kechiradi. Uning otasi toparman-tutarman bo'lib, Saltanat o'ziga to'q oilada voyaga etgan edi. Shuning uchun uning boylik, hashamga mehri baland bo'lib, ertaga emas, bugun dorilamon hayot kechirishni istaydi. Aziz esa ilm-fan kishisi, ziyoli kishilar muhim deb hisoblamaydigan kosaning tagida nimkosa bo'lishi, gapning tagida gap borligi kabi mayda-chuyda masalalarga doim ham e'tibor beravermaydi. Uni boylik, soxta obro' va o'zi arzimaydigan, hech ish qilmasi qo'lga kiritadigan fan nomzodligi-yu, shon-shuhrat uncha qiziqirmaydi [8: 63].

Saltanat murakkab shaxs. Bir soʻz bilan uni ijobiy yoki salbiy qahramon deya olmaymiz. Aziz oʻzidan ancha yosh boʻlsa ham xotinini har doim ham tushuna olmaydi. Moddiy va maʼnaviy boylik oʻrtasida qanday katta farq boʻlsa, Aziz va Saltanat oʻrtasida oʻshanday jarlik bor. Kimdir erini eʼtirof etib, kimdir unga ixlos qoʻysa, uning ilmiy izlanishlarini maqtasa, Saltanat birdan iyib ketar, eriga mexri tovlanar va dorilamon kunlar kelar deb, kelajakka umid bilan boqardi [8: 64]. Ammo turmush qiyinchiliklari, yoʻqchilikka duch kelganda yoki orzu-umidlari tezda amalga oshavermasa uning jiyibiyroni chiqar, eriga kun bermasdi. Saltanatni toʻgʻri yoʻldan ogʻishiga, oilasiga xiyonat qilishiga ham sabab toʻkin xayot kechirish va boylikka erishish istagi edi. Erkaklar eʼtiboridan zavqlanish hissi Saltanatni rom etadi. U oʻziga katta baho berib, Yoʻldoshni suvga olib borib, sugʻormay kelishiga qattiq ishonadi. U Yoʻldosh haqida oʻylaganida, “xushomadingni qilaver, bir tukimga ham tegolmaysan” deb qattiq adashadi. Saltanat eri uyda emasligida maktab davridagi sinfdoshi Yoʻldosh yoʻqlab keladi. Saltanat uni uyga kiritadi, shuningdek, uning olib kelgan sovgʻasini olib qoladi. Keyinchalik Yoʻldoshni haydab solmaganidan, Aziz akasiga aytib berib oʻzini oqlab olmaganidan afsuslanadi. Yoʻldosh ikkinchi bor shirakayf holda yana Aziz yoʻqligida keladi, uy yumushlari bilan ovora Saltanat eshikni ochganida toʻsatdan paydo boʻlgan Yoʻldoshni koʻrib shoshib qoladi. U aftodaxol axvolidan uyaladi, nima qilishini bilmasdi. Yoʻldosh esa mast holda uyga deyarli bostirib kiradi, uning qulogʻiga gap kirmas edi. Saltanat u bilan tortishib shov-shuv koʻpayishini, qoʻshnilari sezib qolishini istamasdi. Toʻsatdan Aziz akasi kirib kelsa nima deyman deb xavotirda turar, bezkak tutgandek butun vujudi dagʻ-dagʻ titrar, tizzalari holsizlanib, jon talvasasiga tushgandi. U nima qilib boʻlsada hozir Yoʻldoshni tezda shovqin-suronsiz chiqarib yuborish kerak degan qarorga kelgandi. Yoʻldosh esa Saltanatning dovdirab qolganidan xirsi oshib, unga suykalgan, xattoki, majburlab oʻpadi. Saltanat eri kelib qolishini oʻylab hushi boshidan uchgan, butun aʼzoyi-badani muzlab ketib, Yoʻldoshning teginayotganini ham sezmasdi. Avvalgi uchrashuvlarida Saltanatning havasini keltirgan, juda yaxshi taassurot qoldirgan Yoʻldosh bu qiliqlari bilan uning koʻziga bachkana, tuturiqsiz, engiltak xotinboz boʻlib koʻrinadi.

Muhiddin Jabborovich romandagi hokimiyatni ifodalovchi obrazlardan biri boʻlib, u oʻzining qattiqqoʻlligi va pragmatizmi bilan ajralib turadi. U oʻz mavqeini saqlab qolish va mustahkamlash uchun turli yoʻllarga boradi. Muhiddin Jabborovich ilm yoʻlida gapini ikki qilgan shogirdi Qosimovning taqdiriga eʼtiborsiz boʻlib, faqat oʻz manfaatlarini koʻzlaydi. Bu qahramon orqali yozuvchi jamiyatdagi hokimiyat va mafkura oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Rasul Olloyorovich romanda murakkab ruhiy kechinmalarga ega shaxs sifatida tasvirlangan. U bilimdon va maʼrifatli inson sifatida tasvirlanadi, lekin bu uning hayot yoʻlini aniq belgilab olishiga yordam bermaydi. Rasul Olloyorovichning obrazi orqali muallif inson ruhiyatidagi oʻzgarishlarni aniq ifodalagan. Muhiddin Jabborovich, Rasul Olloyorovich kabi akademik, olim kishilar oʻz vaqtida koʻplab ixtirolari bilan ilm-fanga katta hissa qoʻshganlar. Yillar oʻtgani sayin oldingi yutuqlaridan havolanib, zamondan asta orqada qola boshlaganlar. Avvaliga Azizning ilmiy rahbari Muhiddin Jabborovich ham, ilmiy tadqiqot institutining direktori Rasul Olloyorovich ham uning tadqiqotidan biror ish chiqishiga ishonmay, Azizni rosa sarson qilishadi, ilmiy yigʻinlarda uni poʻstagini qoqishadi. Qosimov yangi nav yaratgani oydinlashgani sari biri institut direktori, boshqasi uning ilmiy rahbari sifatida bu yangi nav boʻyicha kashfiyotga oʻzlarini nafaqat sherik, balki qonuniy hammualliflardan sanaydilar. Girdob yaqiniga kelgan jamiki narsani oddiy xasdek domiga tortsa, bu olimlar ham barcha narsadan oʻzlariga naf izlaydilar. Manfaatlarga zid kelgan kishilarni girdobdek domiga tortib, ilm-fan olamidani supirib tashlaydilar.

Suvosti dunyosi rang-barang boʻlib, insoniyatga maʼlum boʻlmagan sirlari bir olam. Undagi jonzodlar insonlar kabi turlicha, kimdir yaxshi boʻlsa, kimdir yomon boʻlishi mumkin. Qosimov, Matveyevich kabi sidqidildan mehnat qiladigan, qilayotgan ilmiy tadqiqotlari jamiyatga naf keltirishini istaydigan yaxshi kishilar boʻlsa, ularning orasida ilmsiz, naridan beri siyqasi chiqqan mavzularda, kimlarningdir yordami bilan nomzodlik ishini bitirib olishni, shu orqali yuqori lavozimlarga intiluvchi Shorasulga oʻxshash kishilar ham yoʻq emas.

Usmonov Yoʻldosh obrazini yaratishda realistik tasvir vositalaridan foydalanib, hayotiy tasvirni saqlagan holda, uning oʻziga xosligini namoyon etadi. Yoʻldosh obrazi romanda pragmatik dunyoqarashi bilan boshqa qahramonlardan ajralib turadi. Pragmatik xarakter – u real hayotdagi odamlar singari amaliy manfaatlarini ustun qoʻyadigan obraz sifatida tasvirlangan. Ikkiyuzlamachilik va moslashuvchanlik kabi salbiy xarakter Yoʻldosh obraziga mansub boʻlib, u turli sharoitlarga tez

ADABIYOTSHUNOSLIK

moslasha oladi va hayotiy pozitsiyasini manfaatlariga qarab o'zgartiradi. Shuni inobatga olimishiz kerakki, Saltanat mol-dunyo, boylik va hasham kishisi. Yo'ldoshning qimmatbaho sovg'alari, o'tli ehtirosi va tiyiqsiz jur'ati unga huzur bag'ishlaydi. Saltanat qo'ydek yuvosh erini xayolan u bilan solishtira boshlaydi. Yo'ldoshning qiliqlarini eslaganda uning vujudini yoqimli bir uyat hissi qamraydi. Adib Saltanat obraziga ushbu nomni bejizga qo'ymagan. Saltanatning ismi jismi va ruhiyatiga monand. Aziz ilm yo'lidagi izlanishlari, o'zbek paxtakorlari oldida turgan jiddiy g'o'za kasalligiga qarshi kurashi davomida moddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Shundoq ham yildan yilga tobora avj olib, respublikada paxtachilik maydonlarining katta qismiga tarqalib borayotgan vilt kasalligiga chidamli nav yaratish bir-ikki yillik ish emas edi. Aziz bu tadqiqotga etti yilga yaqin vaqt sarflaydi. Bu vaqt orasida uni qo'llab-quvvatlab, maslahat berib borishi kerak bo'lgan ikkinchi ilmiy rahbari Muhiddin Jabborovich Azizning yovvoyi va madaniy naslni chatishtirib paxta urug'chiligidagi turli kasalliklarga bardoshli nav yaratishiga ishonmaydi.

Domla - shogirt o'rtasidagi kelishmovchilikning ildizi juda chuqur! Yo Muhiddin Jabborovich yoki Aziz o'z fikrlaridan qaytishlari kerak... Kelib-kelib endi omadsiz bir laborant-aspirant oldida Muhiddin Jabborovichdek akademik o'z fikridan qaytadimi? [8: 45]

Ushbu parchadan ko'rishimiz mumkinki, Azizning urug'chilik institutidagi tadqiqoti silliq va muvaffaqiyatli ketayotgani yo'q. Ilmiy tadqiqot institutida arzimagan laborantlik oyligiga qanoat qilib bir necha yillar yashashga majbur bo'ladi. Moddiy qiyinchiliklar va onasining to'satdan vafot etishi Azizga qattiq zarba bo'ladi. Shu davrda uning og'irini yengil qilishi, tinimsiz izlanishlarida yelkadosh bo'lishi, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda dalda bo'lishi kerak bo'lgan umr yo'ldoshi Azizga xiyonat qiladi. Xotinining xiyonati uning oilaviy xayotini ostin-ustun qilib yuboradi. Aziz uyidan bosh olib chiqib ketadi.

XULOSA

O'ktam Usmonov "Girdob" romanida obraz yaratishning murakkab usullaridan foydalanib, realistik va psixologik tasvirga alohida e'tibor qaratgan. Har bir qahramon hayotiy, murakkab va o'z ichki dunyosiga ega. Aziz Qosimovning iztiroblari, Saltanatning ayol sifatida kechirgan qiyinchiliklari, Yo'ldoshning pragmatizmi, Muhiddin Jabborovich va Rasul Olloyorovichning birovning tadqiqot natijasini o'zlashtirib olishga intilishlari roman mazmunini yanada boyitadi. Ushbu asar orqali O'ktam Usmonov inson ruhiyatining nozik jihatlarini ochib berishga erishgan. Uning obraz yaratish mahorati realistik tasvir, psixologik tahlil va ijtimoiy muhitni chuqur anglash bilan uyg'unlashgan. Natijada, "Girdob" romani nafaqat badiiy yuksak asar, balki inson ruhiyatini o'rganish va tahlil qilish uchun muhim adabiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega. O'ktam Usmonovning obraz yaratish uslubi o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan va bu roman orqali uning badiiy mahorati yaqqol namoyon bo'lgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, "Girdob" o'z davrining qimmatli asarlaridan biridir. Unda haqiqat va nohaqlik o'rtasidagi kurash, ayrim ziyolilarning o'zidan boshqalarni ko'rolmasligi, yosh va iste'dodli olimlarning mashaqqatli hayoti katta mahorat bilan tasvirlangan. O'ktam Usmonovning ushbu romani orqali qahramonlarning ruhiy olamini ochib berish va obrazlarning portretini yaratish borasida uning o'ziga xos uslubga ega yozuvchi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zarpullayeva X. A. O'ktam Usmonov ijodining o'ziga xosligi. Journal of New Century Innovations. 2023. 25(1), 118 –124 b. <https://newjournal.org/new/article/view/4282>
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/o-ktam-usmonov-1938-1990>
3. Farmonov N. Classification of the Characters of the Novel Jennie Gerhardt by T. Dreiser. – QarDU xabarlar. – Qarshi, 2024 3 (1) – B.138-143.
4. Farmonov N. Inson obrazini yaratishda badiiy vositalarning ahamiyati: muallif xarakteristikasi va portret. "Zamonaviy filologik tadqiqotlar: nazariy, amaliyot va innovatsion metodlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2024. – B.84-88.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B.41-44.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.62-75.
7. <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html>
8. Usmonov O'. Girdob. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000.